# Scientific researches for development future

## International Conference

March 28, 2020, New York, USA



**B&M Publishing**
**Research and Publishing Center «Colloquium»**

**International Conference**

# SCIENTIFIC RESEARCHES FOR DEVELOPMENT FUTURE

*Science editor: R. Draut*

Copyright © 2020
by Research and Publishing
Center «Colloquium»

ISBN 978-1-941655-00-9

DOI: http://doi.org/10.15350/F_7

All rights reserved.

Published by B&M Publishing.
San Francisco, California

# IMPORTANT ASPECTS OF PEDAGOGICAL SKILL AND WAYS OF ITS FORMATION

*Ochilova Manzura*[1]
*Rakhimova Nilufar*[2]

*Abstract*
This article presents important aspects of pedagogical skills and methods of its formation.
*Key words*: pedagogical skillsprofessional knowledge, humanism, abilities, communication skills, perceptual abilities, dynamism, emotional stagnation, creativity.
doi: http://doi.org/10.15350/F_7/31

Har tomonlama yetuk, o`z kasbining ustasi, yuksak mahoratli pedagog kadrlarni tayyorlash davlat ta`lim siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biridir. V.A. Suxomlinskiy o`zining "Chin insonni qanday tarbiyalash kerak" nomli asarida o`qituvchining mehnatini biror narsa bilan qiyoslab ham, taqqoslab ham bo`lmaydi, - deb ta`kidlab o`tadi. Shuningdek, to`quvchi bir soatdan keyinroq o`z ishining hosilini ko`radi, po`lat erituvchi bir necha soatdan keyin olovdagi metall oqimidan shodlanadi. Bu uning orzusini yuksak cho`qqisi. Yer haydovchi, don sepuvchi, g`allakor bir necha oydan so`ng dalada o`stirgan boshoqlari va bir siqim donidan zavqlanadi. O`qituvchi esa o`z ijodining mahsulini ko`rish uchun yillab mehnat qilishi kerak. O`qituvchi har bir soat, har bir daqiqada o`zining o`ttizta yoki qirqta tarbiyalanuvchisidan har birini ko`rib turishi, u shu daqiqada nimalar o`ylayotganligini, qanday g`am-alamlar uni tashvishlantirayotganligini bilishi kerak, - degan fikrlarni bayon etadi.

Pedagogik mahorat-kasbiy pedagogik faoliyatni yuqori darajada tashkil etishni ta'minlovchi shaxsiy xususiyatlar yig'indisi bo'lib, uning elementlari:
1.Kasbiy bilim, fanlarni o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiya.
2.Insonparvarlik yo'nalishi - qiziqishlar, oliy maqsad, boyliklar.
3.Pedagogik qobiliyat - kommunikativlik, pertseptiv qobiliyat, dinamizm, emotsional turg'unlik, optimistik tarzda oldindan ko'ra bilish, kreativlik.
4. Pedagogik texnika - o'zini boshqarishni, o'zaro ta'sir mexanizmini bilish.
5. Kommunikativlik-odamlarga yaqinlik, samimiylik, xushmuomalalikdan iboratdir.

Pedagogik mahoratning asosiy negizi bu – kasbga oid bilimlarni puxta o`zlashtirishdan iboratdir. O`qituvchi o`quv yurtidayoq ilmiy bilimlar tizimini puxta egallab olishi kerak. Pedagogik mahoratni egallashda psixologiya va pedagogika faniga doir bilimlar katta rol o`ynaydi. Ilmiy psixolgik va pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o`qituvchiga faqat o`z sinfini hamda ayrim o`quvchilarni o`rganish va ularning to`g`ri fe`latvorlarini tushunishgagina emas, balki bolalar jamoasi va uning har bir a`zosini rivojlanish istiqbolini ham belgilash imkonini beradi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o`qituvchi pedagogik mahoratga ega bo`lishi lozim. Pedagogik mahorat egasiz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik hamisha uning hamkori bo`ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste`dodli kishidagina pedagogik mahorat bo`lishi mumkin. Qobiliyat esa faoliyat jarayonida paydo bo`ladi va rivojlanadi. Qobiliyatli va mahoratli o`qituvchi oldida esa hozirgi kun talabi asosida vatanimiz

[1]*Ochilova Manzura*, Lecturer, Bukhara State University, Uzbekistan.
[2]*Rakhimova Nilufar*, Lecturer, Bukhara State University, Uzbekistan.



ravnaqi uchun xizmat qila oladigan, o`z vatanini dildan sevadigan va bu yo`lda o`z jonini ham ayamaydigan yoshlarni vatanga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash vazifasi turadi. Respublikamizda qabul qilingan "Ta`lim to`g`risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi o`qituvchilar oldiga juda katta va mas`uliyatli vazifalarni yukladi.

Davlat ta`lim siyosatida belgilab berilgan vazifalarni ro`yobga chiqaruvchi o`qituvchilardan o`z ustilarida muntazam ishlashni, o`z shaxsiy va pedagogik mahoratini yuksak darajada rivojlantirib borishini talab etadi.

Pedagogik mahorat o`qituvchidan quyidagilarni talab etadi:
1. O`qituvchining dunyoqarashi keng bo`lib, hamma voqea, hodisa ustida erkin fikr yurita olishi zarur.
2. O`qituvchi birinchi galda o`zi o`qitadigan fanni chuqur egallagan bo`lgandagina, o`quvchilarda umumiy va kasbiy ta`lim sifatini tarbiyalay oladi va ularda fan-texnika hamda amaliy faoliyatga qiziqish va istak hosil qila oladi.
3. O`qituvchi hozirgi zamon fan-texnika talabiga muvofiq yaxshi dars berishi va uning har daqiqasidan unumli foydalanishi zarur.
4. U yaxshi o`qituvchi bo`lishi uchun pedagogika, psixologiya va o`z fanining metodikasini ham yaxshi bilmog`i lozim

5. O`qituvchining umumiy madaniyati yuqori bo`lishi bilan birga bir kach adabiyot va san`at sohasidagi bilimlarga ega bo`lishni talab etadi.
6. O`qituvchi pedagogik odobga rioya qilishi kerak. Pedagogik odobi o`qituvchilik kasbiga xos fazilatlardan bo`lib, u o`qituvchining bolalar bilan ishlashi jarayonida uning tajribasi mahoratini oshiradi.
7. O`qituvchi pedagogik mahoratiga va har tomonlama bilimga ega bo`lishi kerak, chunki unga o`quvchilar har sohada murojaat qilishlari mumkin.
Pedagogik mahorat o`z navbatida o`qituvchidan o`ziga xos qobiliyatlar majmuasini talab etadi. Qobiliyatlar bilim, ko`nikma va malakalarni egallashda namoyon bo`lsa ham bilim va ko`nikmalarni egallash bilangina bog`lanib qolmaydi.
Insonni har tomonlama mukammal tarbiyalash, uning kelajagini belgilash borasida tarbiyachi pedagog mahorati, uning yetukligi, chuqur kasbiy bilimi, ko`nikma va malakasi, mavzuni bilim, tajriba muhim rol o`ynaydi, ayniqsa o`quvchi ehtiyoji va e`tiqodini, uning qobiliyati va amaliy ko`nikmalarini mahoratli pedagogsiz shakllantirish mumkin emas. Bunda esa o`qituvchida pedagogik mahorat.

References
[1] Farberman B.L. Ilg`or pedagogik texnologiyalar. T.:1999
[2] Azizxo`jaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.

| | |
|---|---|
| Education reforms in the Republic of Uzbekistan: modern schools and modern education<br>*Abrorjon Sadriddinov* | 65 |
| Prospects for an integrative approach in the field of physical education teaching<br>*Abytova Jasmine*<br>*Sattorova Parvina* | 68 |
| Some issues of sports training planning<br>*Arslonov Qahramon*<br>*O'roqova Saodat* | 71 |
| Problems of optimization of activity of students in elementary classes by means of physical means<br>*Juraev Zhura*<br>*Muhiddinov Mirshod* | 73 |
| Science and its role in modern society<br>*Kamolova Sabrina* | 76 |
| Methods for determining the degree of physical fitness<br>*Yusupova Zulfizar*<br>*Rakhimova Laylo* | 78 |
| Stress tolerance of teachers as the ability to prevent conflicts<br>*Karimova Vasila*<br>*Mirzabdullaeva Dilxumor* | 80 |
| Creativity as an individual's ability<br>*Alieva Zulxumor* | 84 |
| Features of the formation of the pedagogical image in the development of the teacher's personality<br>*Juraeva Sarvinoz* | 86 |
| Methods of preparing children for school in fine activities<br>*Abdullaeva Masuda*<br>*Abdullaev Dilmurod* | 88 |
| Development of psychological features of attention at junior school-age<br>*Abdullaeva Nilufar* | 90 |
| Characterization of the process of education of patriotism among students of higher educational institutions<br>*Abdullaev Amrillo* | 92 |
| Education of moral principles of preschool children<br>*Gulbakhor Davronova*<br>*Nigina Ikramova* | 94 |
| Important aspects of pedagogical skill and ways of its formation<br>*Ochilova Manzura*<br>*Rakhimova Nilufar* | 97 |

*MEDICAL SCIENCES*

| | |
|---|---|
| The problem of comorbidity in acute coronary syndrome without st segment elevation<br>*Grebenchikova Ekaterina*<br>*Cherepanova Ekaterina* | 99 |
| Assessment of risk factors for chronic pancreatitis<br>*Dukov Denis*<br>*Kurilyak Maria* | 101 |